

---

Uyushmagan xotin-qizlar o'rtasida voleybol musobaqasi tashkil etildi  
Qo'shtepa tumanidagi "Do'rmon" mahallasi hududida joylashgan 10-umumiy o'rta ta'lim maktabining sport zalida "Do'rmon" mahallasi kubogi" uchun ayollar o'rtasida voleybol musobaqasi tashkil etildi.

Musobaqada "Do'rmon" va "Do'stlik" mahallalarida yashovchi uyushmagan xotin-qizlardan tashkil topgan jamoalar o'zaro bellashdi.

Musobaqa so'ngida g'olib jamoaga tuman Oila va xotin-qizlar bo'limi hamda mahalla mas'ullari tomonidan diplom va esdalik sovg'alari topshirildi.

2025-02-01 08:38:05